

## Davlat stipendiyalariga nomzodlarni saralash imtixonlarini o'tkazilish kunlari belgilandi

### O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat stipendiyasi hamda Beruniy, Navoiy va Islom Karimov Davlat stipendiyalariga nomzodlarni saralash imtixonlarini o'tkazilish kunlari belgilandi

Qobiliyatli yoshlarni rag'batlantirish, ularni faol yaratuvchilik faoliyatiga keng jalb etish, iqtidorli o'quvchilarni, talabalarni qo'llab quvvatlashga mamlakatimizda alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston o'quvchi yoshlarini rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1993 yil

5 fevraldagi PF-555-sonli [Farmoniga \(2017 yil 5 iyun PF-5069-sonli Farmoni bilan kiritilgan o'zgartirishlar bilan\)](#) muvofiq O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat stipendiyasi, Beruniy, Navoiy, Islom Karimov, institut Ilmiy kengash stipendiyalariga nomzodlarni saralash jarayonining 1-bosqichini o'tkazish maqsadida iqtidorli talabalar uchun saralash imtixonlarini o'tkazilish kunlari belgilandi.

<b>№</b>	<b>Fanning nomi</b>	<b>Imtixon kuni va vaqti</b>
1.	Chet tili	25.06.2019 y. soat 10 <sup>00</sup> B-01
2.	Informatika va axborot texnologiyalari	26.06.2019 y. soat 10 <sup>00</sup> Bk-14-15
3.	O'zbekiston tarixi	26.06.2019 y. soat 13 <sup>30</sup> B-225
		Qanday imtiyozlar bor Davlat stipendiyalariga sazovor bo'lgan talabalar belgilangan tartibda yuqori miqdorda stipendiya oladilar, o'qishni tugatganlaridan so'ng magistraturaga imtixonlarsiz grant asosida o'qishga qabul qilinadilar.

***Iqtidorli talabalarning ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish bo'limi metodisti***  
***Z.Temirova***